

DENOV TUMANINING 1996-YILGI TARIXINI ARXIV HUJJATLARI ASOSIDA O'RGANISH

Davlatov Orziqul Bahodirovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 3-kurs talabasi

E-mail: davlatovorziqul@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Denov tumani 1996-yilgi tarixini arxiv hujjatlari asosida tizimli tarzda o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida asosan mahalliy davlat arxivlaridagi rasmiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, xujjatli materiallar va o'sha davrga oid boshqa manbalar tahlil qilindi. Maqolada 1996-yilda Denov tumanida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bataysil yoritiladi. Shuningdek, hududda amalga oshirilgan boshqaruv organlari faoliyati, ayollarni ish bilan ta'minlash uchun qilingan tadbirlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot arxiv materiallari orqali o'sha davrning muhim voqealari va mintaqaviy o'ziga xosliklarini aniqlashga imkon yaratadi.

Kalit so'zlar: Denov, arxiv, ayollarni ish bilan ta'minlash, hokim, moddiy resurslar, "Chag'anixon" gazetasi

KIRISH

Tarixiy tadqiqotlar orqali mintaqalar va hududlarning o'tgan davrdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy holatini aniqlash, ularning rivojlanish yo'llarini chuqur anglash imkonini beradi. Denov tumani, O'zbekistonning qadimiy va madaniy jihatdan boy hududlaridan biri sifatida, o'zining o'ziga xos tarixiy jarayonlari bilan e'tiborni tortadi. Ayniqsa, 1990-yillarning 90-yillari mamlakat tarixida katta o'zgarishlar davri bo'lib, bu o'zgarishlar mahalliy darajada ham o'z aksini topgan. 1996-yil Denov tumani uchun o'ziga xos voqealar, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va boshqaruv tizimidagi yangi shakllanishlar davri hisoblanadi. Shu sababli,

ushbu yildagi tarixiy jarayonlarni aniq va bat afsil o‘rganish muhimdir. Bu esa arxiv hujjatlari kabi asosiy manbalarni tizimli tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Maqolaning maqsadi — Denov tumani 1996-yilgi holatini, o‘sha davrda yuz bergan jarayonlarni arxiv materiallari yordamida o‘rganish, shu orqali mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish yo‘nalishlarini yoritishdir.

ASOSIY QISM

Surxondaryo viloyati hokiminining 1995-yil 6-dekabrdagi № 25-F-raqamli farmoyishini bajarish hamda xotin-qizlar bilan ishslash masalalarini tashkil etish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish masalalarini hal etishga keng jalg qilish, Davlat va ijtimoiy boshqaruvdagi ishtirokini faollashtirish, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha konsepsiyasini bajarish to‘g‘risidagi tadbirlari yuzasidan Denov shahar xotin-qizlar qo‘mitasining ishlarini quyidagilar:

1. Denov shahar hokimligi xotin-qizlar qo‘mitasi a’zolari, jamoa xotin-qizlar kengashi raislari, shahar xotin-qizlarining maishiy turmush darajasini, aqliy ma’rifiy saviyasini yuqori darajaga ko‘tarish uchun bir qancha ijobiy ishlarni amalga oshirilgan. Qo‘mita qoshida viloyat xotin-qizlar qo‘mitasining tavsiyasiga binoan “Tadbirkor, ishbilarmon, ayollar” assotsiatsiyasi, “Ijodkor” xotin-qizlar uyushmasi, “Iqtisodchi” xotin-qizlar uyushmasi, “Huquqshunos” xotin-qizlar uyushmasi tuzilgan. Bu uyushma a’zolari shahar xotin-qizlariga o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha yordamlar berib borgan. Korxonalarda mehnat qilayotgan ishbilarmon va ilg‘or xotin-qizlar qo‘mita ro‘yxatida turgan. Ana shu ilg‘or xotin-qizlarning madaniy saviyasi, ijtimoiy-siyosiy mavqeい, erishayotgan yutuqlarini xalqqa tanitish maqsadida Denov gazetalarida, Denov radiokompaniyasi, “Chag‘oniyon” gazeti orqali yoritilib berilgan. Shahar xotin-qizlarning maishiy turmush darajasini yanada yuqoriga yetkazish maqsadida qo‘mita ko‘plab tadbirlar o‘tkazgan va ko‘plab savobli ishlarni amalga oshirishni rejalshtirgan.

2. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida onalar va bolalarning ijtimoiy himoyalanishini yanada yaxshilash maqsadida “Kam ta’minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustdagi 1-434 raqamli qaroriga asosan 1996-yilda Denovdagi 16 mahalladan 2960 oila moddiy yordamga muhtoj bo‘lib, shularga jami 4 mln 758 ming so‘m mablag‘ mahalliy budjetdan ajratilgan. Onalar, nogironlar, kam ta’minlangan oilalar, korxonalar va xayriya tashkilotlari tomonidan yordam ko‘rsatilib, bir nechta ishlab chiqarishga tadbirkor ayollar ham o‘z hissalarini qo‘sghanlar. Masalan, tadbirkor ayollardan Xikoyat Sharipova firma boshlig‘i, Gulchehra Haydarova “Qurban niyoz” firma direktori, “Gulnora” xususiy firmasi rahbarlari davlat tomonidan berilayotgan yordamga o‘zlarining qo‘srimcha ko‘maklarini yetkazib bergen.

3. Prezidentning 38-sonli farmoyishi “Onalar va bolalar sog‘lom avlod uchun” dasturiga muvofiq bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Aksariyatida ayollar sog‘ligi yangi avlodning sog‘lomligi uchun poydevordir. Onalar sog‘ligini saqlash maqsadida barcha tug‘ishga layoqatli hamda layoqatsiz ayollar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan. 1996-yilda jami 18514 ayol bo‘lib, shulardan tug‘ish yoshidagilar 12048 tani tashkil etgan Shu ayollardan 10830 tasi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, 6262 tasida kasallik aniqlanib, 6252 tasi to‘liq sog‘lomlashtirilgan. Shundan so‘ng “Onalar va bolalar o‘limi” keskin pasaygan.

4. Oilada xotin-qizlarni, bog‘cha va maktab yoshidagi qizlarning salomatligini muhofaza qilish borasida ham talaygina ishlar amalga oshirilgan. Bog‘chalarda, maktablarda mahallalarda tibbiyot xodimlari bilan bирgalikda salomatlik mavzusida davra suhbatlari hamda turli munozarali tadbirlar o‘tkazilgan. Shaharda o‘smirlar poliklinikasi tashkil etilib, unda o‘smir qizlarning salomatligini tiklash uchun ma’lum vaqt mobaynida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgan. Ular profilaktika guruhlari va kasallikka chalinganlari alohida ro‘yxatga olingan. Kasalligi aniqlanganlarni davolash uchun kasalxonada bir qancha ishlar amalga oshirilgan.¹

¹ Denov tumani davlat arxivi 4-javon, 201-339-raqamli hujjat, 163-169-betlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Denov shahar hokimligining 1996-yil 30-sentabrda 407-sonli qaroriga ko‘ra, shaharda naqd pul tushumini yaxshilash borasida bir munkha ishlar amalga oshirilgan. Shu bois, oktabr oyida belgilangan shahar va rayonda kassa daromadi rejasi 49 mln so‘m etib belgilanib, amalda 55,2 mln so‘m, kassa xarajati rejaga asosan 84 mln so‘m belgilangan bo‘lib, amalda 95 mln so‘m edi. Kassa miqdori esa 35 mln so‘m etib belgilanib, amalda -39,8 mln so‘m bo‘lgan holda emissiya darajasi 41,7 foizni tashkil qilgan.² Denov shahar hokimligi qoshidagi dam olish maskanlari direktsiyasi bergen ma‘lumotlariga ko‘ra 1996-yil yoz mavsumida shahar korxonalaridan 7 tasining dam olish maskanlaridan 5 tasida viloyatning turli yerlaridan kelgan aholi mehnatkashlari chilangirlik qilgan.³ Jumladan, tashkilot va korxonalarda tuzilgan ro‘yxat asosida, shanba va yakshanba kunlari 1637 nafar kishi oila a’zolari bilan dam olgan. Bundan tashqari, butun mavsum davomida 7000 dan ortiq shahar aholisi Bundabuloq, Vaxshivor, Sangardak, Xonjiiza qishloqlari atrofida, shuningdek To‘palang, Surxon va Qizilsuv daryolari bo‘ylarida doimiy ravishda dam olishgan. Dam olish maskanlari direktsiyasi yozgi mavsumda bolalar va o‘smirlarning dam olishi uchun yetarlicha sharoitlar yaratgan va alohida e’tibor bergen. Shahar hokimining 1996-yil 11-aprel 79-2-sonli farmoyishi asosida, shahardagi 40 ta maktabda iyun oyida bolalar oromgohlari tashkil etilib, 600 nafar o‘quvchi yoshlar dam olgan. Bundan tashqari, shahar tashqarisida joylashgan “Chashma” bolalar oromgohi ham iyun oyida faoliyat yuritgan.⁴ 226 nafar bola iyun oyida, 359 nafar bola esa iyul oyida dam olishgan. Yozgi mavsum davomida dam oluvchilarning maroqli dam olishi hamda madaniy hordiq chiqarishi uchun shahar madaniyat bo‘limi, jismoniy tarbiya va sport musobaqalari qo‘mitasi bilan hamkorlikda turli tadbirlar va konsertlar tashkil etilgan. Shuningdek, “Yosh sayyoohlar” markazi tomonidan Amir Temur qabriga sayohat uyushtirilib, ushbu sayohatda 25 nafar kishi ishtiroy etgan. 1996-yil yozgi

² Denov tumani davlat arxivni 4-javon, 201-339-raqamli hujjat, 162-bet.

³ Denov tumani davlat arxivni 5-javon, 339-raqamli hujjat, 170-bet.

⁴ Denov tumani davlat arxivni 5-javon, 339-raqamli hujjat, 175-bet.

mavsumini namuna qilib o'tkazishda faol ishtirok etgan shahar xalq ta'limi bo'limi xodimlari shahar hokimligi tomonidan imtiyozli tarzda taqdirlangan.⁵

XULOSA

1996-yil Denov tumani uchun ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish borasida muhim yillardan biri bo'lib, arxiv hujjaligiga asoslangan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tuman hokimligi va boshqa tashkilotlar tomonidan aholining ayniqsa, ayollar va kam ta'minlangan oilalarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga katta e'tibor qaratilgan. Ayollarni ish bilan ta'minlash uchun mehnat birjasni orqali tizimli ishlar olib borilib, ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar samarali amalga oshirilgan. Shuningdek, onalar va bolalarning sog'ligini muhofaza qilish, ta'lim va madaniyat sohasidagi tadbirlar ham keng yo'lga qo'yilgan. Mehnatkashlar uchun yaratilgan dam olish sharoitlari, yoshlar va bolalarga mo'ljallangan oromgohlar faoliyati, madaniy va sport tadbirlari aholi farovonligini oshirishda muhim omil bo'lgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Denov tumani davlat arxivi 4-javon, 201-339-raqamli hujjat, 163-169-betlar.
2. Denov tumani davlat arxivi 4-javon, 201-339-raqamli hujjat, 162-bet.
3. Denov tumani davlat arxivi 5-javon, 339-raqamli hujjat, 170-bet.
4. Denov tumani davlat arxivi 5-javon, 339-raqamli hujjat, 175-bet.
5. 1996-yilgi Denov tuman hokimi axborotnomasi.

⁵ 1996-yilgi Denov tuman hokimi axborotnomasi.